
Huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari uchun seminar mashg'uloti o'tkazildi

Qo'shtepa tumani IIB binosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 10-iyundagi "Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-89 son Farmoni yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari, profiliktika nozirlari, Yo'l harakati xavfsizligi, kommunal idora va boshqa muassasa mas'ul xodimlari ishtirokida seminar mashg'uloti o'tkazildi.

Unda, Farmon mazmun-mohiyati, shuningdek, ma'muriy huquqbazarlikka oid ishlar bo'yicha bir qator masalalar borasida savol-javob tarzida huquqiy tushuntirishlar berildi. Seminarni jinoyat ishlari bo'yicha Qo'shtepa tuman sudining tergov sudyasi D.Axmedov o'tkazdi.

2025-01-07 19:08:47